

## **ABDULLAORIPOV SHE'RIYATIDA TABIAT VA HISSIYOT TASVIRI**

*Kumush ZAVQIYEVA*

*Shahrisabz tumanidagi 31-maktabning 8-sinf o'quvchisi*

### ***Annontatsiya:***

Ushbu maqolada tabiat tasvirining badiiy jihatlari tahlil qilinadi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'rlarida. Xulosalar obraz va poetik mazmun uyg'unligi sirlari haqida qilingan.

### ***Kalit so'zlar:***

O'zbek she'riyati, Abdulla Oripov, tabiat va san'at.

Go'zal va serjilo vohaning tog'li kengliklarida voyaga yetgan, ona tabiatning betakrorligi va go'zalligidan ilhomlangan, sodda va mehridaryo insonlar ichida kamolga yetgan serqirra ijodkor, she'rlari bilan bashariyat ko'ngliga kirib borgan

buyuk shoir, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov garchi oramizda bo'lmasalar- da, ijodi hamon e'tiborimizdadir. „Belgiliki, insonning ruhiy holati va kayfiyatini manzaralashtirish uchun ulkan iste'dod lozim. Bu jihatdan Abdulla Orif talanti tengsiz qudratga ega“ Shoir ijodiga nazar tashlasak, tabiatga oshuftalik,

tabiat bag'rida voyaga yetgan inson ruhiyati va albatta xayoliy mavjlanishlarga guvoh bo'lamiz.

Shoirning she'rlarida tabiat lirikasi shu qadar jonli ifoda etiladiki, o'quvchi o'zini shu muhitda, o'sha manzarada yashayotgandek his qiladi:

***Eh, siz tog'lar naqadar ko'rkam,***

***Sizga berar ilk nurin quyosh.***

***Par bulutlar marvarid qorlar,***

***Yuksak cho'qqi uzra qo'ygan bosh***

Yuqoridagi misralarda aks etgan peyzaj (tabiat tasviri) xuddi rassom chizgan suratdek o'quvchi ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. Uchinchi misradagi qorga berilgan o'xshatish, ya'ni marvarid so'zida qorning xuddi marvarid kabi tovlanishini sezish mumkin. Nafaqat o'xshatish balki tasvirlash mahoratiga e'tibor qaratadigan bo'lsak tog'larning yuksakligi tufayli bulutlarning tog'lar yelkasiga bosh qo'yishi hamda quyoshning ilk nuri ham unga talpinishini ko'rish mumkin.

Shu she'rning oxirida shunday tugallanma keladi:

***Eh, siz tog'lar, dilrabo tog'lar,***

***Yosh qalbimni maftun etgansiz.***

***Yoshlik, baxtni kuylagin, deya,***

***Ijodimga ilhom tutgansiz.***

Ushbu she'rga „1958“ deya sana qo'yilgan. Qolaversa, anglash mumkinki, ijodining boshida shoir tabiat manzaralarini ijtimoiy motivlarsiz – nekbin tarzda tasvirlagan.

Shoir ijodi xilma-xil va rang-barang, unda hayot, ijod, inson tasviri va qiyinchiliklar hamda shu bilan bir qatorda xayoliy tasvirlar tabiat kompozitsiyasi

bilan aloqador tarzda ifoda etiladi. Shoir ijodida tabiat lirikasi ustuvor ekanligini shoirning o'zi ta'kidlagan quyidagi fikrlardan ham bilish mumkin. „Qo'ng'irtov etaklari ming-ming xil o't-o'lan, chuchmomo-qizg'aldoqlar bilan qoplanar, atrof tevarak jannatiy bir manzara kasb etardi.

Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go'zal bo'lardi. Tim qora osmonda qo'l cho'zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turardi“ [2, 166]. Mana shunday muhit, Oллоh yuqtirgan

qobiliyat tufayli „Porloq yulduzlarday kulgim keladi“ deya orzu qilgan ijodkor sekin-asta ijod muhitining yetakchilaridan biriga aylana boshladi.

Shoir ongiga tabiat tasvirining eng serjilo misralari quyilib kelgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Quyidagi she'rni fikrimiz isboti sifatida keltirsak:

*Kapalakning uchishin uzoq,*

*Kuzatdim ham yurdim ortidan.*

*Qarshimizda g'unchalar porloq,*

*Miltir shudring chaman sathidan.*

*Allaqayda kezib tinimsiz*

*Yig'dik rosa zavq atirlarin.*

*So'ngra baham ko'rdik ikkimiz,*

*Menga tegdi shu satrlarim.*

Yuqoridagi „Kapalak va men“ she'rida shoir bir she'rning yozilishidagi holatni

ifodalagan, deya ayta olamiz. Bunda shoir uchun kapalak ilhom bo'lsa uning ketida

shoir zavq ila go'zallik izlamoqda va shu asnoda she'r dunyoga keldi. Naqadar ajoyib tarzda ifodalash uslubi shoirning yana bir bor mahorat ustasi ekanligidan dalolat beradi. Sirdan qaraganda oddiydek tuyulgan she'rdan quyidagi xulosalar chiqarish mumkin: 1) Kapalak – o'tkinchi umr ramzi; 2) Kapalak – go'zal olam, go'zal umrni qadrlash ramzi; 3) Ana shunday manzaralar ta'siridagi hukm – shoirlikni tanlash.

*Tongni ham osmonga tik boqib kutdim,*

*Kuzatdim birma-bir yulduzlarni ham.*

*Xayol daryosida o'zni yo'qotdim*

*Boshimdan koinot zar sochgani dam.*

Yuqoridagi misralarda shoirning tabiat tasviri orqali o'z kechinmalarini ifoda etganini ko'rishimiz mumkin. Tong – bu misoli shoir kutgan orzular, maqsadlar, uning ro'yobi uchun harakat qilib osmonga tik boqishi va atrofdagi yulduzlar esa

shoirning ishongan haqiqati, uning hayotni o'z ko'zi bilan tasavvur qiluvchi bir bo'lagi. Keyingi misrada yulduzlarni, ya'ni hayotni kuzatayotgan shoir xayollar og'ushida atrofdagi mayda ikir-chikirlar ichida qolib, o'zini yo'qotib qo'yganini ta'kidlaydi. Xuddi shu she'rning keyingi satrida esa:

***Yulduzlar! Berkinmang tong tumaniga,  
Ketmang ko'zlarimni yoshlab ketguncha.  
Yakka suhbatdoshim, ketmagin Zuhram  
Ketma, senga aytgan she'rim bitguncha.***

Inson va, albatta, shoirning ham hayot yo'li bor. Uning ham xato-kamchiliklari

mavjud. Xuddi shu asnoda yuqorida yulduzlar deya o'z hayotiga, orzu umidlariga

da'vat qilayotgan shoir, orzularidan, hayotdan ajralib qolishini istamaydi –

„ko'zlarini yosh tomchilari ila“ qoldirib ketmasligini o'tinib so'raydi, hatto o'sha

Zuhro yulduziga „men hali hayotni o'zim yaratishim kerak“ hali o'zi orzu qilgan

hayotga ya'ni hayot baytlarini yozgunicha u bilan suhbatdosh, sirdosh bo'lishi haqidagi o'tinchi bilan yakunlanadi:

***Nimani xohlayman, istagim nima?  
Changalzor shovqinin tinglab turaman.  
Yaproqlar bandida kezgan jimgina,  
Ma'yus va bezovta kuzni ko'raman.***

*Uning qo'shig'ida uning ohida*

*Sezaman odamzod qalbin gohida.*

Nazarimimizda, shu she'rdan boshlab tabiat tasviri zamiriga ijtimoiy ma'nolar singdirila boshlagandek. „Changalzor shovqini“, „ma'yus va bezovta kuz“ shoirning shaxsiy hayotiga, hayot chigalliklariga ishora go'yo.

*Mangu yaxshilikning maskani qayda?*

*Qaydadir xazonni bilmagan bahor?*

*Nechun u hovliqib oqquvchi soyda,*

*Chavandoz umrining qaytmas sehri bor?!*

*Nechun uyg'onadi qaytadan bahor,*

*Nechun inson umri bo'lmagan takror?..*

Darhaqiqat, hayot shundayki, unda bahor ham har yili qaytariladi. Ammo har bahorda umrning qaytmas onlari chavandoz kabi yugurib o'tadi. Hayotda faqat oldinga intilish, uning g'animat ekanligini tushunish va inson umri hech qachon bahor kabi qaytmasligi, hayotni yaxshi amallar va faqat eng chiroyli onlar bilan bezash darkor ekanligi, faqatgina bahor kabi yam-yashillikka, go'zallikka burkanganxayollar og'ushida umr o'tkazishi kerakligi shoir qalbida takrorlanaveradi. Endi she'rda bahor tasviri – shoshqin umr unsurlaridan biri.

Xazon esa – umr poyoni. Bu yerdagi tazod – yoshlik va o'lim ibtido va intiho haqida eslatib turadi.

Akademik olim Matyoqub Qo'shjonov ham haqli ta'kidlagan edi: „Hayotga intilayotgan butun tabiat olami, boshiga har qanday kulfat tushmasin, yengaman,

o'saman, ulg'ayaman, ko'rkam bo'laman deydi. Bu tabiat qonuni. Kichik bir she'rda shu katta ma'noni sig'dirish uchun hayotda olg'a boqadigan, olg'a boqib, uzoqlarni

ko'radigan, eng muhimi kuzatilgan voqeadan ma'no chiqara oladigan iste'dod

bo'lishi kerak edi. Abdulla yoshligidanoq o'zini shunday iste'dod sifatida ko'rsatdi“

Abdulla Oripov she'riyati so'z va tovushlarning go'zal o'yinidir, balki rang-barang tuyg'ularning mohirona tasviri hamdir. Uning she'rlarida ko'pincha katta kuchga ega bo'lgan so'z bilan ifodalangan yorqin tasvir va tuyg'ularni uchratish mumkin.

U o'z she'rlarida tuyg'ularni shunday tasvirlaydiki, bu ishqning hidlari, ranglari, ohanglarini bizga yetkazganday bo'ladi. Oripov she'rlarida ishqning zavqi, ishtiyoqi, shodligi va qayg'usi shu qadar aniqlik bilan tasvirlanganki, uni o'zimiz boshdan kechirayotgandek bo'lamiz.

Shoir she'rlarida tasvirlaydigan mavzulardan yana biri tabiatdir. U bizni o'rab turgan tabiatning go'zalligini qanday etkazishni biladi, uni turli xil tasvirlar va metaforalar yordamida tasvirlaydi. Uning she'rlarida biz gullarni hidlaymiz, qushlarning sayrashini eshitamiz, shamol nafasini his qilamiz.

Bundan tashqari, odamlarning his-tuyg'ularini, ularning fikr va his-tuyg'ularini tasvirlaydi. U insoniy his-tuyg'ularni tasvirlashga qanday yondashishni biladi, go'yo biz o'zimiz bu his-tuyg'ularni boshdan kechirayotgandekmiz. Uning she'rlarida dard, sog'inch, shodlik, zavq, muhabbat va boshqa ko'plab tuyg'ularni his qilishimiz mumkin.

Oripov hissiyot va tuyg'ularni ifodalashda turli uslub va obrazlardan foydalanadi. Uning she'riyatida klassik shakllarni ham, erkin she'rlarni ham uchratish mumkin. U go'zal obrazlar yaratish va his-tuyg'ularni etkazish uchun metafora, ramz va allegoriyalardan foydalanadi.

Shunday qilib, Abdulla Oripov she'riyatida tuyg'u va tuyg'ularni jonli va rang-barang tasvirlab, ularni til orqali yetkazadi. Uning she'rlarida bizga turli tuyg'ularni yetkazuvchi hidlar, ranglar va tovushlarni his qilishimiz mumkin. Uning she'rlari yorqin taassurot qoldiradi va atrofimizdagi dunyoni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar:**

1. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2000. 432 б.
2. Абдулла Орипов. Танланган асарлар. Еттинчи жилд. Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. – Т.: 2013. 300 б.
3. Қозоқбой Йўлдош. Очқич сўз. – Т.: Тафаккур, 2019. 688 б.
4. Қўшжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. Биринчи жилд. –Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. 384 б.
5. Матякупов, С. (2010). Шериятда диалог яратиш маҳорати. Tashkent, “Мухаррир.